

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

O'RINOV YIGITALI MURATOVICH

**CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI
BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economic sciences**

O‘rinov Yigitali Muratovich

Chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifatini baholash tizimini

takomillashtirish 3

Уринов Йигитали Муратович

Совершенствование системы оценки качества услуг на предприятиях

розничной торговли 27

Urinov Yigitali Muratovich

Improving the system of assessment of the quality of services in retail trade

enterprises..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

O'RINOV YIGITALI MURATOVICH

**CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI
BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Iqt1929 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Urazov Komil Bahromovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Suyunov Dilmurod Xolmuradovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "23" 02 kuni soat 15:00__dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_072_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "10" 02 kuni tarqatildi.
(2024-yil "10" 02__dagi №_02__raqamli reestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.A.Kuvandikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

M.M.Muxammedov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi turmush darajasi sifatini oshirishda an'anaviy tarzda chakana savdo muhim ahamiyat kasb etgan holda, ishlab chiqarishning ijtimoiylashuvi sharoitida shartli ravishda ishlab chiqarishni yakunlovchi va iste'molchi bilan uchrashuvni tashkil qiluvchi bo'g'in sifatida chakana savdoning ahamiyati yanada o'sib bormoqda. "Jahonda chakana savdo hajmi 2021-yildagi 24,2 trillion. AQSH dollari hajmidan 2025-yilga kelib, taxminan 31,7 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilingan bo'lib, globallashtirish va bozorlar hamda mamlakatlar o'rtasidagi turli shartnoma va kelishuvlar natijasida ko'plab chakana savdo korxonalari biznes yuritish imkoniyatiga ega bo'lishi kutilmoqda"¹. Bugungi kunda chakana savdo xizmatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, xizmat ko'rsatish sifatini baholashga ko'ra iste'molchilar talabini yuqori darajada qondirish muammolariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda chakana savdoni rivojlantirish va savdo xizmatlari sifatini baholash tizimini takomillashtirishda aholi turmush darajasi sifatini oshirish sharoitida chakana savdoni innovatsion texnologiyalarga ko'ra rivojlantirish, savdo ishlab chiqarishini ratsional tashkil qilish, chakana savdo xizmatlari tarkibini kengaytirgan holda savdo xizmatlari sifatini integral baholash uslubiyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada elektron tijoratni samarali rivojlantirish, chakana savdo xizmatlari sifatini baholash uslubiyatini komplekslik darajasiga ko'ra takomillashtirish, savdo tizimining innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini uslubiy jihatdan aniqlashtirgan holda uning samarali yo'llarini asoslash kabi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida chakana savdo korxonalar faoliyatining barqaror va samarali rivojlanishi, xizmat sifati bilan bir qatorda xizmat madaniyatini oshirish, savdo korxonalarini sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, tarkibni optimallashtirish va assortimentni kengaytirish hamda savdo ishlab chiqarishini samarali tashkil qilish kabi yo'nalishlarda dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yurtimizda 2 mingdan ziyod mahalla xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan. Bunday hududlarni ko'paytirish maqsadida, aholisi 20 mingdan oshadigan mahallalarda chakana savdo va xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etiladi. Bu markazlar ham 5 yil muddatga yer va mol-mulk solig'idan ozod etiladi"². Bu vazifalarni hal etishda chakana savdo xizmatlari sifatini baholash uslubiyatini takomillashtirish, iste'molchilarning chakana savdo xizmatlariga talabini to'laroq qondirish, savdo tizimini innovatsion rivojlantirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5813-son "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot

¹ <https://www.statista.com/statistics/report-content/statistic/443522>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 19-aprel kuni mahallabay ishlash tizimi natijadorligini oshirish hamda aholi bandligini ta'minlash masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi. <https://president.uz/uz/lists/view/5133>

texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son “O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Servis iqtisodiyotining rivojlanishi, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik, inson kapitalini rivojlanishi muammolarining fundamental asoslari xorijlik olimlar³, jumladan, J.M.Keyns, A.Marshall, M.Fisher, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, A.Pigu, Y.A.Shumpeter va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Chakana savdo sohasida xizmatlar sifatini baholash masalalarining ilmiy-metodologik jihatlari xorijlik olimlar⁴, jumladan: N.A.Barkan, A.Vetitnev, I.Voinov, Yu.Ye.Gupanova, I.Sh.Dzaxmishева, V.F.Yegorovoy, E.Nyumen, N.Ye.Nikolaychuk, M.A.Nikolayeva, P.Kolen, S.V.Trusova, D.K.Shevchenko, O.V.Pamxbuxchiyans va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Маршалл А. Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. – М.: Прогресс-Т.3. 1984. –119 с.; Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. — Elsevier Science Publishing Co, 1987. -500 p.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб и др.: ПИТЕР бух, 2002. – 751 с.; Пигу А. Экономическая теория благосостояния / Пигу А.: В 2 т. – М.: Прогресс — Т.2- 1985. – 240 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.

⁴ Баркан Н. А. Качество услуг и культура обслуживания населения / Н. А. Баркан, Я. С. Дцгаров. — М.: Легкая и пищевая промышленность, 1984; Ветитнев А. Методология оценки качества услуг организации санаторно-курортной сферы/ А.Ветитнев, О.Малова // Маркетинг. – 2003. -№6 (73). – С. 79-89; Воинов И. Качество как концепция развития услуг / И.Воинов // Ресурсы. Информация. Снабжение. Конкуренция. – 2010. — № 1. – С. 251-255; Гупанова Ю.Е. Формирование методологии управления качеством / Ю. Е. Гупанова // Вестник ИНЖЭКОНА. Сер. Экономика. – 2009. — № 7. – С. 123-133; Дзахмишева И.Ш. Методика оценки конкурентоспособности услуг в розничной торговой сети / И.Ш.Дзахмишева // Маркетинг в России и за рубежом. – 2004. -№3. – С. 93-108; Егоров В.Ф. Организация торговли: учебник / В.Ф.Егоров. – СПб.: Питер, 2006. – 352 с.; Николайчук Н.Е. Маркетинг и менеджмент услуг. Деловой сервис / Н. Е.Николайчук. – СПб.: Питер, 2005. – 608 с.; Ньюмен Э. Розничная торговля: организация и управление / Э.Ньюмен, П.Колен, СПб.: Питер, 2005. — 416 с.; Памбухчианц О.В. Организация коммерческой деятельности: учебник / О.В. Памбухчианц. – М.: Дашков и Ко, 2004. – 442 с.; Трусова С.В. Современные подходы к оценке качества торгового обслуживания на предприятиях розничной торговли / С.В.Трусова // Сегодня и завтра российской экономики. – 2009. – Вып. 27. – С. 142-148; Шевченко Д.К. Организация и управление качеством: монография / Д.К.Шевченко, В.В. Груздев. – Владивосток: 1998. – 221 с.

Ushbu muammolarni o‘rganishga o‘zbekistonlik olimlardan⁵ B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, B.I.Isroilov, M.M.Muxammedov, R.I.Altinbayev, A.T.Kutbetdinov, I.K.Yo‘ldoshev, K.B.O‘razov, N.A.Komilova, F.B.Abdukarimov va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Ammo yuqorida keltirilgan mualliflarning ishlarida chakana savdoda xizmatlar sifatini o‘rganish muammosini yaxlit baholash asosida turli bozor subyektlari manfaatlarini hisobga olgan holda, uning ayrim jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, chakana savdo korxonalarini va bozor subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmini ishlab chiqishdagi turli motivlarni nazarda tutib, chakana xizmatlar sifatini har tomonlama va tabaqalashtirilgan baholash imkonini beruvchi yangicha ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifatini baholash tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifatini baholash tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“chakana savdo xizmatlari” kategoriyasining iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy tahlil qilish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

chakana savdo xizmatlari turlarining muayyan yo‘nalishlari va xususiyatlariga ko‘ra tasnifini ishlab chiqish;

chakana savdo korxonalarini xizmatlari sifatiga qo‘yiladigan talablar, ularning xususiyatlari hamda xizmatlar sifatining besh bosqichli modelini tasniflash;

respublikamizda chakana savdoning rivojlanish holatini dinamik tahlilini amalga oshirish;

chakana savdo korxonalarining xizmatlar sifatini baholashga turli xil yondashuvlar tahlilini o‘tkazish;

chakana savdo korxonalarining xizmatlar sifatini baholash usullarini tadqiq etish;

⁵ Abdukarimov B.A. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик I – қисм, – Тошкент: «Иқтисод-молия» 2010.; Пардаев М.Қ., Исроилов Б.И. Савдо корхоналарининг иқтисодий таҳлили. Ўқув қўлланма, 1-2-қисм, – Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2001; Мухаммедов М.М., Алтинбаев Р.И., Кутбетдинов А.Т., Абдукаримов Б.А. «Экономика торговли». Учебное пособие. – Самарканд. 1998; Йўлдошев И.К. Савдо корхоналари иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т. ТДИУ, 2005; Ўразов К.Б. «Савдода бухгалтерия ҳисоби ва солиққа тортиш», Ўқув қўлланма. – Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2004; Абдукаримов Б.А., Комилова Н.А., Абдукаримов Ф.Б. Актуальные вопросы развития торговли в Узбекистане. Монография. – Т.: «Иқтисодиёт», 2010; Фаттахов А.А. Рыночные механизмы и интенсификация оптовой торговли. Монография. – Т.: ТГЭУ, 2002.

chakana savdo korxonalarida savdo xizmatlari sifatini baholash uslubiyatini takomillashtirish;

chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifatini integral baholash usulini takomillashtirish;

chakana savdo korxonalarida innovatsion xizmatlar ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi chakana savdo korxonalarining xo'jalik-iqtisodiy faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifatini baholash tizimini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, integral baholash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chakana savdo tizimida sifatli xizmat ko'rsatish va ehtiyojni to'laroq qondirish xususiyatiga ko'ra tizimda qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishning tarkibi sotuvda mavjud bo'lmagan tovarlarga buyurtmalarni keng qabul qilish va xarid qilingan tovarlarni sotuvdan keyingi sinovdan o'tkazish (kafolatlash) xizmatlariga ko'ra takomillashtirilgan;

savdo xizmatlari sifatini baholash (boshqarish)ning uslubiy yondashuvi xizmat ko'rsatishdagi bo'shliqlar (beshta bo'shliq) bevosita bir-birini olib kelishi va ularni tizimli bartaraf etish yuzasidan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga ko'ra takomillashtirilib, savdo xizmatlarini ko'rsatishning sifat modeli taklif etilgan;

iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va savdo madaniyatining yuksalib borishi sharoitida chakana savdo xizmatlari sifatining integral samarasini baholashning an'anaviy talablari tarkibiga "xizmat ko'rsatish moddiy sharoitlari"ni kiritishning maqsadga muvofiqligi asoslanib, iste'molchiga ko'ra xizmatlar sifatini

$I_{xs} = \sqrt[5]{I_{ts} \times I_{msh} \times I_q \times I_s \times K_{xt}}$ integral baholash taklif qilingan;

chakana savdo tizimini intensiv rivojlantirishda savdo korxonasi faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish loyihasining tashkiliy, tadqiqot, rejalashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha o'zaro faoliyat loyiha guruhini shakllantirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"xizmat" va "chakana savdo korxonalarida xizmatlari" kategoriyalarining iqtisodiy mazmunini ifodalovchi mualliflik yondashuv ishlab chiqilgan;

chakana savdo xizmatlari sifatiga qo'yiladigan talablar funksional, ijtimoiy, mehnat sharoitlari, estetik va texnologik jihatlari bo'yicha hamda xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq umumiy va maxsus xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratilib tasniflangan;

chakana savdo xizmatlari sifatining integral koeffitsiyenti mijozlar talablarini qondirish darajasi, chakana savdo xizmatlarini ko'rsatish darajasi, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar parametrlarini baholash ko'rsatkichlari asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi,

qoʻllanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, maʼlumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasining statistik maʼlumotlaridan olingani hamda taklif etilgan xulosa va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan chakana savdo korxonalarida xizmatlar turlarining muayyan yoʻnalishlari va xususiyatlariga koʻra tasnifi ishlab chiqilganligi, savdo xizmatlari koʻrsatishning sifat modeli taklif etilganligi, chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifatini integral baholash usulining takomillashtirilganligi, chakana savdo korxonalarida innovatsion xizmatlar koʻrsatishning asosiy yoʻnalishlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifatini baholash uslubiyatini takomillashtirish, chakana savdo korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish, sohaga oid meʼyoriy hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, chakana savdo korxonalarini innovatsion rivojlanishiga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifatini baholash tizimini takomillashtirish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

chakana savdo tizimida sifatli xizmat koʻrsatish va ehtiyojni toʻlaroq qondirish xususiyatiga koʻra tizimda qoʻshimcha xizmatlar koʻrsatishning tarkibini sotuvda mavjud boʻlmagan tovarlarga buyurtmalarni keng qabul qilish va xarid qilingan tovarlarni sotuvdan keyingi sinovdan oʻtkazish (kafolatlash) xizmatlariga koʻra takomillashtirish boʻyicha taklif Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan “2023–2024-yillarda xizmat koʻrsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish” dasturini ishlab chiqishda foydalangan (Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 5-apreldagi 11/03-15-3874-sonli maʼlumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish chakana savdo korxonalarida qoʻshimcha xizmatlar turlarini uslubiy jihatdan guruhlash aniqligini oshirishga koʻra qoʻshimcha xizmatlar turini boyitish va xizmat koʻrsatish sifatini oshirishga xizmat qilgan;

savdo xizmatlari sifatini oshirish (baholash, boshqarish)ning uslubiy yondashuvi xizmat koʻrsatishdagi boʻshliqlar (beshta boʻshliq) bevosita bir-birini olib kelishi va ularni tizimli bartaraf etish yuzasidan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va savdo xizmatlarini koʻrsatishning sifat modeli boʻyicha takliflar Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan “2023–2024-yillarda xizmat koʻrsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish” dasturini ishlab chiqishda foydalanib, uning hududiy tuzilmalari amaliyotiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 5-apreldagi 11/03-15-3874-sonli maʼlumotnomasi). Ushbu takliflardan foydalanish xizmatlar sifatini oshirish bilan bir qatorda mahsulotlarni xarid qilish vaqtini qisqartirishga, isteʼmolchilarning xizmatlardan qoniqish darajasini oshirishga xizmat qilgan;

iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va savdo madaniyatining yuksalib borishi sharoitida chakana savdo xizmatlari sifatining integral samarasini baholashning an'anaviy talablari tarkibiga "xizmat ko'rsatish moddiy sharoitlari"ni kiritishning maqsadga muvofiqligi asoslanib, iste'molchi fikriga ko'ra xizmatlar sifatining integral samarasini $I_{xs} = \sqrt[5]{I_{ts} \times I_{msh} \times I_q \times I_s \times K_{xt}}$ orqali ifodalash taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2023–2024-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini ishlab chiqishda foydalanib, uning hududiy tuzilmalari amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 5-apreldagi 11/03-15-3874 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish sotsiologik so'rov natijalari bo'yicha chakana savdo korxonalarida xizmatlari sifatini baholash orqali korxonalar iqtisodiy samaradorligini 1,25 martaga oshirish imkonini bergan;

chakana savdo tizimini intensiv rivojlantirishda savdo korxonasi faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish loyihasining tashkiliy, tadqiqot, rejalashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha o'zaro faoliyat loyiha guruhini shakllantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2023–2024-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini ishlab chiqishda foydalanib, "Yuniko Plyus" chakana savdo korxonasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 5-apreldagi 11/03-15-3874-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish chakana savdo korxonalarida marketing tadqiqotlarini o'tkazish asosida innovatsiyalarni joriy etish va tijoratlashtirish natijasida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 4 ta va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 148 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida chakana savdo korxonalarini xizmatlari sifatini baholashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmat ko‘rsatish sohasida chakana savdo xizmatlari rivojlanishining nazariy yondashuvlarini ilmiy jihatdan tahlil etish asosida “xizmat”, “chakana savdo korxonalarini xizmatlari” kategoriyalarining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi hamda chakana savdo korxonalarida ko‘rsatiladigan xizmatlar turlari, alohida belgilari va yo‘nalishlari bo‘yicha tasniflandi. Shuningdek, chakana savdo korxonalarida xizmatlar sifati va xususiyatlari, nazariy-metodologik asoslari tadqiq qilingan.

Chakana savdo korxonalarini iste‘mol bozori infratuzilmasining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi, bir tomondan, iste‘molchilarning turli xil tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabini yanada ko‘proq, sifatliroq qondirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, iste‘mol bozorining samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida, shu jumladan savdo sohasida bozor munosabatlarining rivojlanishi chakana savdoning takror ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rnini sezilarli darajada o‘zgartirdi, bu esa tovar aylanmasi hajmi bo‘yicha bozor jarayonlariga faol ta’sir qila boshladi. Zamonaviy sharoitlarda chakana savdo xizmatlarining rivojlanishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga, iste‘mol talabiga muvofiq iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishni faollashtirishga, mintaqalararo va davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishga, iste‘mol bozorida mahsulot taklifini shakllantirishga imkon beradi hamda ehtiyojlarni qondirish orqali aholi turmush sifatini yaxshilashga shart-sharoit yaratadi. Shunga ko‘ra, hozirgi sharoitda chakana savdo xizmatlari sifatini baholash masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va bu boradagi ilmiy ishlanmalarni yanada takomillashtirishga zarurat sezmoqda.

Xizmat – bu faoliyat ko‘rinishidagi iqtisodiy natija sifatidagi harakat bo‘lib, uni ko‘rsatish jarayonida bajaruvchi hamda iste‘molchi o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar orqali uning xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq mijoz talabini qondirish bo‘yicha taqdim etiladigan, mulk bilan bog‘liq bo‘lmagan nomoddiy ne‘matlardir.

Chakana savdo korxonalarini xizmatlari – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmatlarning foydaliligi xususiyati va uni chakana savdo korxonalarining foydali faoliyati shaklidagi ijtimoiy foydalanish qiymati sifatida belgilaydigan, bozor subyektlari talabini va xizmatlarni sotib olish va sotish orqali sotuvchining iqtisodiy foydasini ta’minlashga mo‘ljallangan o‘ziga xos mahsulotdir.

Xizmatlar turlarini tasniflashning asosiy xususiyatlaridan biri qondiriladigan ehtiyojlarning xususiyati, bunda chakana savdo korxonalarining xizmatlari tovarlarni sotish bo‘yicha asosiy hamda xaridorga xarid qilish bo‘yicha ko‘maklashish va ulardan foydalanish; axborot va maslahat xizmatlari ko‘rsatish; xaridorlarga tovarlarni xarid qilish, sotib olishda qulayliklar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha xizmatlardan tashkil topadi. Shunga ko‘ra, tovarlarni realizatsiya qilish, ularni xarid qilish, tovarlardan foydalanish, axborot-maslahat hamda tovarlar xaridining qulayliklari asosida ehtiyojlarni qondirish xususiyatiga ko‘ra chakana savdo tizimida qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatishning tarkibiy elementlari asoslandi.

Chakana savdo xizmatlari turlarini tasniflashning muhim xususiyati ularni amalga oshirish vaqti bo‘lib, bizning fikrimizcha, bunda xizmatlar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi: sotishdan oldingi xizmatlar, sotish jarayonidagi xizmatlar, kafolatli xizmatlar va kafolatsiz xizmatlar (pullik) (1-rasm).



1-rasm. Chakana savdo korxonalarida xizmatlarining amalga oshirish muddatiga qarab turlari va tarkibi⁶

Chakana savdo korxonalarida ko‘rsatiladigan savdo xizmatlari ro‘yxati ma’muriyat tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlarning assortimentiga qarab, korxonaning ixtisoslashuvi, joylashishi, xizmat ko‘rsatilayotgan hududning o‘ziga xosligi va xizmatlarning muvofiqligi asosida kengaytirilishi mumkin.


Hozirgi vaqtda “sifat” kategoriyasining kelib chiqishini funksional va integral tushunish keng tarqalgan bo‘lib, bu turli xil omillar ta’sirida uni har tomonlama baholash imkonini beradi.

Chakana savdo xizmatlarini ko‘rsatish “foydalilik” iqtisodiy kategoriyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu iste’molchining tovar foydaliligini oshiradigan tovar va xizmatlar iste’molidan qoniqishidir. Xizmatlar realizatsiyasi qo‘shilgan naflilik qonuniga bo‘ysunadi, unga muvofiq muayyan bir mahsulot iste’molining o‘sishi

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bilan boshqa tovarlar iste'moli o'zgarishsiz qolsa, umumiy naflilik oshadi, lekin kichikroq miqyosda amalga oshadi.

Chakana savdo xizmatlari undan foydalanish jarayonida ma'lum bir foydali xususiyatga ega va shu bilan birga, chakana savdo korxonalariga tashrif buyurgan mijozlar ularni nafaqat iste'mol tovarlarini sotib olish nuqtayi nazaridan, balki xizmatlarga bo'lgan boshqa ehtiyojlarini qondirish nuqtayi nazaridan ham qabul qiladilar. Chakana savdo korxonalarini xizmat ko'rsatish sifatining to'rt jihati ko'rib chiqilishi zarur (2-rasm).




2-rasm. Chakana savdo xizmatlari sifatining xususiyatlari⁷

Ta'kidlash lozimki, xizmatlarning barcha to'rtta sifati bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Yangi zamonaviy chakana savdo uskunalari o'rnatish (texnik jihat) xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi, sotish texnikasini takomillashtirish va xaridorga xizmatni olish vaqtini qisqartirish imkonini beradi (funksional jihat). Xizmatlar sifati etnik jihatida uzoq muddatda muhim ahamiyatga egadir, chunki xaridorlar uchun zararli holatlarni oldini olishga qaratilgan bo'lib, bino va inshootlar holatiga, sotilayotgan tovarlar sifatiga va assortimentiga bog'liqdir (texnik jihat).

Chakana savdo korxonasining tovarlarni xarid qilish vaqtini qisqartirish, iste'molchilarni xizmatlardan qoniqish darajasini oshirish hamda xodimlar kompetensiyasi indikatorlari tasnifini shakllantirish asosida savdo xizmatlari ko'rsatishning sifat modeli ishlab chiqildi (3-rasm).

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3-rasm. Chakana savdo korxonalari xizmatlari sifatining modeli⁸

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Taklif etilgan chakana savdo xizmatlari sifati modeliga ko'ra, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bilan mijoz noroziligini aniqlashda quyidagi muammolar aniqlandi: birinchi bo'shliq tadbirkorning iste'molchilar kutuvlari to'g'risidagi tasavvurlari noto'g'riligi; ikkinchi bo'shliq savdo korxonasi (yoki boshqa boshqaruv tuzilmalari) rahbariyatining tasavvurlari va iste'molchilar tomonidan kutilayotgan xizmatlar sifati belgilovchi omillar o'rtasidagi farq mavjudligi; uchinchi bo'shliq – xizmat ko'rsatish sifati va chakana savdo xizmatchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni belgilovchi omillar o'rtasidagi farq; to'rtinchi bo'shliq iste'molchilarning xizmat ko'rsatishning kutilgan sifati va haqiqiy ko'rsatilgan xizmatlar o'rtasidagi tashqi kommunikatsiyalar (reklama, rasm, dizayn va boshqalar) ta'sirida farqni belgilaydi; beshinchi bo'shliq mijozlar tomonidan kutilgan va haqiqiy chakana savdo xizmatlari sifati o'rtasidagi farqni tavsiflaydi. Ushbu bo'shliqlar bir-biriga bevosita bog'liqdir, 1-bo'shliqning paydo bo'lishi 2 va 3-bo'shliqlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Chakana savdo xizmatlari sifati baholashda yuqorida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni tahlil qilish ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati oshirishga va chakana savdo korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining **“O'zbekistonda chakana savdo korxonalarining rivojlanish holati va ularda xizmatlar sifati baholash yondashuvlar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida ryepublikada chakana savdo korxonalarining rivojlanish holati va tendensiyalari hamda chakana savdo korxonalarining xizmatlar sifati baholashga yondashuvlar tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, chakana savdo korxonalarining xizmatlar sifati baholash usullari tadqiq qilingan.

Chakana savdo faoliyati sotuvchining daromad olish bo'yicha manfaatlari va xaridorning yuqori sifatli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini birlashtiradi. Aynan chakana savdo faoliyati orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishni maksimal darajada jamiyat talablarini hisobga olishga yo'naltiradi.

Chakana savdo faoliyati shaxsiy tanlov nazariyasiga asoslanadi, bu esa iste'molchining ustuvor ekanligi tamoyiliga asoslanadi va jamiyat hayot sifatining ijtimoiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda chakana savdo sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'plab chakana savdo korxonalarini tovar aylanmasi barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lmoqda va alohida yirik chakana savdo korxonalarining aylanmasi nufuzli sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlariga solishtiriladigan bo'ldi. Chakana savdo tarmog'i ta'minot zanjiri bo'ylab boshqa tarmoqlarga, shu jumladan xaridorlar, distribyutorlar va ishlab chiqaruvchilar bilan tobora kuchayib bormoqda.

Buxoro viloyatida chakana savdo aylanmasi hajmi bo'yicha tahliliy ma'lumotlarga nazar solsak, jami 2022-yilda 18190,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 2,2-martaga oshgan. Viloyat hududlarida chakana savdo aylanmasi hajmi deyarli ikki martadan ortiq, uch martaga yaqin o'sish dinamikasiga ega bo'lgan. Hududlar kesimida chakana savdo aylanmasi

hajmi bo‘yicha Buxoro tumanining ulushi yuqori salmoqqa ega bo‘lib, 2018-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan deyarli 3,0 mataga oshgan (1-jadval).

1-jadval

Buxoro viloyatida chakana savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so‘m)⁹

| Hududlar | 2018 y. | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2018-2022 y.y. o‘sish |
|------------------------------|---------------|----------------|----------------|----------------|----------------|-----------------------|
| Buxoro shahri | 2799,8 | 3431,3 | 4046,0 | 4807,4 | 6430,1 | 2,3-marta |
| G‘ijduvon tumani | 1436,8 | 1844,1 | 2153,8 | 2737,4 | 3314,5 | 2,3 marta |
| Buxoro tumani | 399,6 | 473,3 | 617,7 | 873,9 | 1189,7 | 3,0-marta |
| Kogon shahri | 319,2 | 459,1 | 386,2 | 440,4 | 625,1 | 195,8 % |
| Vobkent tumani | 480,7 | 602,1 | 640,7 | 717,7 | 986,3 | 2,0 marta |
| Romitan tumani | 509,4 | 582,6 | 726,9 | 816,3 | 1069,4 | 2,1-marta |
| Qorako‘l tumani | 785,2 | 1081,8 | 898,7 | 1007,1 | 1157,5 | 147,4 % |
| Peshku tumani | 260,8 | 256,8 | 394,5 | 481,2 | 559,6 | 2,1 marta |
| Jondor tumani | 485,7 | 544,0 | 695,9 | 801,0 | 922,9 | 190,0 % |
| Olot tumani | 200,1 | 265,8 | 259,7 | 320,8 | 418,4 | 2,1-marta |
| Shofirkon tumani | 329,5 | 412,7 | 480,1 | 544,3 | 706,5 | 2,1 marta |
| Kogon tumani | 165,7 | 167,2 | 280,4 | 401,8 | 473,8 | 2,8 marta |
| Qorovulbozor tumani | 134,2 | 158,9 | 231,4 | 429,6 | 336,5 | 2,5 marta |
| Viloyat bo‘yicha jami | 8306,7 | 10279,7 | 11812,0 | 14378,9 | 18190,3 | 2,2-marta |

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, chakana savdo sohasida raqobat kurashi turli xil yo‘nalishlarda olib boriladi. Biz, ushbu yo‘nalishlardan uch turini ajratdik: 1. Xaridorlarga xizmat ko‘rsatish shakllari o‘rtasida (masalan, ilg‘or o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish savdo do‘konlari va eskirgan shakldagi oziq-ovqat do‘konlari). 2. Ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar o‘rtasida (ishlab chiqaruvchining brendi ostida o‘zlarining chakana savdo do‘konlarining ishlab chiqarish korxonalarida paydo bo‘lishi). 3. Yangi bozorlarda (masalan, Amerika va Xitoy kompaniyalari Yevropa bozorida o‘zlarini namoyon qilishga intiladi, G‘arbiy Yevropa kompaniyalari Markaziy va Sharqiy Yevropa bozorlarini egallashga harakat qiladilar).

Buxoro viloyatida chakana savdo rivojlanishi xizmat ko‘rsatish sohasining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Buxoro viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan chakana savdo korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahliliga e‘tibor bersak, “BUXORO DORI DARMON” MCHJ va “YUNIKO PLYUS” MCHJ chakana savdo korxonalarida chakana savdo aylanmasi hajmi yuqori bo‘lib, 2022-yilda bu korxonalarda chakana savdo aylanmasi mos ravishda 358,8 mlrd. so‘m va 224,8 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Ushbu korxonalarda sof foyda hajmi tahlil etilayotgan boshqa chakana savdo korxonalariga nisbatan yuqori bo‘lgan. Mazkur korxonalarda ishlayotgan jami xodimlar soniga nazar solsak, 2022-yilda “BUXORO DORI DARMON” MCHJ da 247 nafarni, “YUNIKO PLYUS” MCHJ 157 nafarni tashkil qilgan. Qolgan korxonalarda faoliyat yurituvchi xodimlar soni ularning xo‘jalik faoliyati hajmidan kelib chiqqan holda nisbatan ancha kam hisoblanadi. Mehnat unumdorligi tahlil qilinayotgan barcha korxonalarda deyarli bir-biriga yaqin ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lgan. 2022-yilda fondlar qaytimi yuqori bo‘lgan korxonalar sifatida “BUXORO DORI DARMON” MCHJ (1,58 so‘m), “YUNIKO

⁹ Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida hisoblangan.

PLYUS” MCHJ (1,58 so‘m), “BUXORO BAHOR SAVDO” MCHJ (1,64 so‘m), “GRAND GAZ SERVICE” MCHJ (1,58 so‘m)larni keltirish mumkin. 2022-yilda mahsulot sotish rentabelligi “KOPILKA” MCHJda (21,2%) eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan (2-jadval).

Ma’lumki, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan chakana savdo aylanmasi hajmi bevosita aholi daromadligi darajasiga bog‘liq bo‘lib, aholi bandligi darajasi va o‘rtacha daromadlar miqdoriga bog‘liqdir. Xaridor o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan mahsulotni xarid qilmasdan turib, chakana savdo xizmatini to‘liq yakuniga yetgan deb hisoblash mumkin emas, ya’ni chakana savdo xizmatlari mahsulot (tovar) bilan xizmat ko‘rsatishdir.

2-jadval


Buxoro viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan chakana savdo korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, mlrd. so‘m¹⁰

| Ko‘rsatkichlar | Korxonalar nomi | “BUXORO DORI DARMON” MCHJ | “YUNIKO PLYUS” MCHJ | “BUXORO BAHOR SAVDO” MCHJ | “DOMOVOY” MCHJ | “PROGRESS” MCHJ | “AS IN FARMA” MCHJ | “GRAND GAZ SERVICE” MCHJ | “KOPILKA” MCHJ |
|---|-----------------|---------------------------|---------------------|---------------------------|----------------|-----------------|--------------------|--------------------------|----------------|
| | Yillar | | | | | | | | |
| Chakana savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m | 2021 | 286,1 | 177,3 | 37,5 | 25,0 | 30,8 | 27,8 | 19,3 | 17,8 |
| | 2022 | 358,8 | 224,8 | 48,2 | 30,3 | 39,0 | 34,7 | 24,1 | 22,7 |
| Mahsulot tannarxi mlrd. so‘m | 2021 | 228,7 | 141,8 | 30,0 | 20,0 | 24,5 | 22,2 | 15,4 | 14,5 |
| | 2022 | 287,3 | 179,8 | 38,6 | 24,2 | 31,2 | 27,9 | 19,3 | 17,9 |
| Sof daromad, mlrd. so‘m | 2021 | 57,4 | 35,5 | 7,5 | 5,0 | 6,4 | 5,6 | 3,8 | 3,5 |
| | 2022 | 71,6 | 45,0 | 9,6 | 6,1 | 7,8 | 6,7 | 4,8 | 4,7 |
| Sof foyda, mlrd. so‘m | 2021 | 32,1 | 24,7 | 5,4 | 3,3 | 4,7 | 3,8 | 2,1 | 2,2 |
| | 2022 | 45,6 | 31,6 | 7,5 | 4,5 | 6,2 | 4,9 | 3,2 | 3,8 |
| Jami ishchi-xodimlar soni, birlik | 2021 | 219 | 117 | 25 | 18 | 22 | 23 | 12 | 12 |
| | 2022 | 247 | 157 | 32 | 21 | 27 | 24 | 16 | 15 |
| Mehnat unumdorligi, mln. so‘m | 2021 | 1306 | 1515 | 1500 | 1389 | 1400 | 1209 | 1608 | 1483 |
| | 2022 | 1453 | 1432 | 1506 | 1443 | 1444 | 1446 | 1506 | 1513 |
| Fondlar qaytimi, so‘m | 2021 | 1,53 | 1,52 | 1,61 | 1,29 | 1,13 | 1,40 | 1,57 | 1,30 |
| | 2022 | 1,58 | 1,58 | 1,64 | 1,35 | 1,14 | 1,44 | 1,58 | 1,42 |
| Mahsulot sotish rentabelligi, % | 2020 | 14,0 | 17,4 | 18,0 | 16,5 | 19,2 | 17,1 | 13,6 | 15,2 |
| | 2021 | 15,9 | 17,6 | 19,4 | 18,6 | 19,9 | 17,6 | 16,6 | 21,2 |
| Korxonaning joriy likvidiligi, % | 2021 | 0,28 | 0,23 | 0,24 | 0,24 | 0,27 | 0,23 | 0,22 | 0,21 |
| | 2022 | 0,29 | 0,25 | 0,26 | 0,25 | 0,28 | 50,22 | 0,23 | 0,22 |

Hozirgi vaqtda chakana savdo korxonalarini xizmatlari sifatini baholash metodologiyasi to‘liq va keng qamrovli ishlab chiqilmagan, bu esa xizmatlar sifatini belgilovchi omillarni har tomonlama tahlil qilish va ularga yaxlit baho berish imkonini beradi. Bu esa hozirgi sharoitda chakana savdo korxonalarini faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu soha korxonalarini xizmatlari sifatini tadqiq qilish va ularni muvofiqlashtirish bo‘yicha qarashlarni, uslubiy yondashuvlarni tizimlashtirishni talab etadi.

¹⁰ Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida hisoblangan.

Dissertatsiya ishimizning oldingi paragraflarida keltirilgan ma'lumotlar tahlili asosida, biz tomonimizdan, chakana savdo korxonalarida xizmatlari sifatini o'rganish va baholashning uch bosqichli usuli taklif etiladi, bular: dastlabki, asosiy va yakuniy. Chakana savdo korxonalarida xizmatlari sifatini baholashda biz tomonimizdan o'ziga xos ketma-ketlik taklif etilmoqda (4-rasm).



4-rasm. Chakana savdo korxonalarida xizmatlari sifatini baholashning bosqichli algoritmi¹¹

Chakana savdo korxonalarida xizmatlari sifatini baholashning dastlabki bosqichida quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Dastlabki tahlilning maqsadi chakana savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining xizmatlar sifatini o'rganish va baholash hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tahlillarning quyidagi vazifalari belgilab olingan: xizmat sifatini belgilovchi omillarni aniqlash va baholash; chakana sotuvchilar tomonidan sotiladigan tovarlar, mahsulotlar yetkazib berish sifatini tahlil qilish; chakana savdo xizmatlarini ko'rsatish jarayonining sifatini baholash; chakana savdo xizmatlari sifatini yaxlit baholash; chakana savdo korxonalarining tashqi va ichki muhitining

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hozirgi sharoitida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini va samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni aniqlash yo'llarini ishlab chiqish.

2. Tahlilning obyekti va predmeti aniqlanadi. Ushbu tahlil jarayonida chakana savdo korxonalarini tomonidan xizmatlarni sotish va ularning sifatini baholash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar predmeti hamda oziq-ovqat mahsulotlarini sotuvchi turli chakana savdo korxonalarini subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi, tamoyil va strategiyalari ishlab chiqiladi.

4-jadval

Iste'mol tovarlari yetkazib beruvchilari nuqtayi nazaridan alohida determinantlar guruhi doirasida chakana savdo korxonalarini xizmatlari sifati ko'rsatkichlarini integral baholash¹²

| Ko'rsatkich nomi | Ko'rsatkichni hisoblash usuli |
|--|---|
| Chakana savdo korxonalarida mahsulotlar taklifi sifati integral ko'rsatkichi | $I_{ts} = \frac{T_1 \times A_1 + T_2 \times A_2 + \dots + T_n \times A_n}{\sum_{i=1}^n A_n}$, bu yerda T_1, T_2 va boshqalar – mahsulotlar taklifi sifati alohida, xususiy ko'rsatkichining “a'lo” va “yaxshi” baholagan respondentlar ulushi, %da; A_1, A_2 va boshqalar – mahsulotlar taklifi sifati ko'rsatkichini alohida, xususiy ko'rsatkichining ahamiyati, %da |
| Xizmatlar ko'rsatishning axborot ta'minoti integral ko'rsatkichi | $I_{at} = \frac{AT_1 \times A_1 + AT_2 \times A_2 + \dots + AT_n \times A_n}{\sum_{i=1}^n A_n}$, bu yerda AT_1, AT_2 va boshqalar – axborot ta'minoti alohida, xususiy ko'rsatkichining “a'lo” va “yaxshi” baholagan respondentlar ulushi, %da; A_1, A_2 va boshqalar xizmat ko'rsatishning axborot ta'minoti ko'rsatkichini alohida, xususiy ko'rsatkichining ahamiyati, %da |
| Xizmatlar ko'rsatishning ishonchliligi integral ko'rsatkichi | $I_{ish} = \frac{IS_1 \times A_1 + IS_2 \times A_2 + \dots + IS_n \times A_n}{\sum_{i=1}^n A_n}$, bu yerda IS_1, IS_2 va boshqalar – xizmat ko'rsatish ishonchliligi alohida, xususiy ko'rsatkichining “a'lo” va “yaxshi” baholagan respondentlar ulushi, %da; A_1, A_2 va boshqalar – xizmat ko'rsatishning ishonchliligi ko'rsatkichini alohida, xususiy ko'rsatkichining ahamiyati, %da |
| Xizmatlardan foydalanish osonligi integral ko'rsatkichi | $I_o = \frac{O_1 \times A_1 + O_2 \times A_2 + \dots + O_n \times A_n}{\sum_{i=1}^n A_n}$, bu yerda O_1, O_2 va boshqalar – xizmatdan foydalanish osonligi ko'rsatish ishonchliligi alohida, xususiy ko'rsatkichining “a'lo” va “yaxshi” baholagan respondentlar ulushi, %da; A_1, A_2 va boshqalar – xizmatdan foydalanish osonligi ko'rsatkichini alohida, xususiy ko'rsatkichining ahamiyati, %da |
